

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

YOSHLAR IJTIMOIIY FAOLIGINING INSTITUTSIONAL O'ZANI VA UNI RAQAMLI DAVRDA QAYTA TIKLASH

Erkinjonov Doniyorbek Erkinjon o'g'li

Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi, Xodimlarni boshqarish bo'limi rahbari.

e-mail: d.erkinjonov953@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-8152-8330>

Annotatsiya.

Maqolada yoshlar ijtimoiy faolligiga institutsional-madaniy rakursdan yondashiladi. Muammo motivatsiya taqchilligi darajasida emas, niyatni jamoaviy harakatga aylantiruvchi institutsional o'zan darajasida qo'yiladi: yoshlarda faollik mavjud, ammo uni natijaga olib chiquvchi vositachi tuzilma zaiflashgan. Samarali faollikning to'rt ustuni – chaqiriq, manzil, natija va e'tirof zaiflashgani asoslanib, "raqamli hashar" modeli taklif etiladi. An'anaviy hashar instituti strukturaviy-funksional dekompozitsiya qilinib, mazkur ustunlarning har biri mustaqil nazariy an'anaga bog'lanadi; raqamli muhitda ularning zaiflashuvi ramziy faollik ("slaktivizm")ning institutsional sababi sifatida izohlanadi. Nazariy tahlil M. Granovetterning bo'sag'a modeli, E. Ostromning institutsional dizayn tamoyillari, S. Verbaning fuqarolik ixtiyoriyligi modeli va A. Xirshman sxemasiga tayanadi. Empirik baza – bir xil texnologik va huquqiy muhitda ishlaydigan ikki milliy platformaning qiyosi: ulardan birida ovoz berish ko'rsatkichi 117 baravarga o'sgan, ikkinchisida esa murojaatlarning kichik qismigina ovoz berish bosqichiga chiqqan.

Kalit so'zlar: yoshlar, ijtimoiy faollik, hashar, mahalla, ijtimoiy institut, ijtimoiy kapital, ko'ngillilik, ishtirok bo'sag'asi, institutsional dizayn, slektivizm, jamoaviy samaradorlik, ramziy kapital, tashabbusli budjetlashtirish, raqamli fuqarolik ishtiroki.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЕ РУСЛО СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ И ЕГО ВОССТАНОВЛЕНИЕ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ

Эркинжонов Дониёрбек Эркинжон угли

Центр анализа демократических процессов, руководитель отдела управления персоналом.

Аннотация.

В статье социальная активность молодёжи рассматривается в институционально-культурном ракурсе. Проблема ставится не на уровне дефицита мотивации, а на уровне институционального русла, преобразующего намерение в коллективное действие: активность у молодёжи есть, но опосредующая структура, доводящая её до результата, ослаблена. Обосновывается ослабление четырёх опор эффективности – призыва, адреса, результата и признания – и предлагается модель «цифрового хашара». Институт хашара подвергается структурно-функциональной декомпозиции, каждая опора соотносится с самостоятельной теоретической традицией; ослабление опор в цифровой среде объясняется как институциональная причина символической активности («слактивизма»). Теоретическая рамка: пороговая модель М. Грановеттера, принципы институционального дизайна Э. Остром, модель гражданской добровольности С. Вербы, дихотомия «выход – голос – лояльность» А. Хиршмана. Эмпирическая база – сравнение двух национальных платформ, работающих в одной технологической и правовой среде: на одной из них число голосующих выросло в 117 раз, на другой лишь малая часть обращений дошла до стадии голосования.

Ключевые слова: молодёжь, социальная активность, хашар, махалля, социальный институт, социальный капитал, волонтерство, порог участия, институциональный дизайн, слактивизм, коллективная эффективность, символический капитал, инициативное бюджетирование, цифровое гражданское участие.

THE INSTITUTIONAL CHANNEL OF YOUTH SOCIAL ACTIVITY AND ITS RESTORATION IN THE DIGITAL AGE

Erkinjonov Doniyorbek Erkinjon o'g'li

Center for Analysis of Democratic Processes, Head of the Human Resources Department.

Abstract.

The article examines youth social activity from an institutional and cultural perspective. The problem is framed not as a deficit of motivation but at the level of the

institutional channel that converts intention into collective action: young people are active, yet the mediating structure that carries activity through to a result has weakened. The weakening of four efficiency pillars – call, address, result and recognition – is demonstrated, and a “digital hashar” model is proposed. The traditional hashar institution is subjected to a structural-functional decomposition in which each pillar is linked to a distinct theoretical tradition; the erosion of these pillars in the digital environment is explained as the institutional cause of symbolic activity (“slacktivism”). The theoretical framework draws on M. Granovetter’s threshold model, E. Ostrom’s institutional design principles, the Civic Voluntarism Model of S. Verba et al., and A. Hirschman’s exit-voice-loyalty framework. The empirical base is a comparison of two national platforms operating within the same technological and legal environment: on one, participation grew 117-fold, while on the other only a small share of appeals reached the voting stage. The difference is related to how complete the four pillars are; the relationship is assessed as associative, and a route to testing it causally is set out.

Keywords: youth, social activity, hashar, mahalla, social institution, social capital, volunteering, participation threshold, institutional design, slacktivism, collective efficacy, symbolic capital, participatory budgeting, digital civic participation.

Kirish. Tadqiqot muammosini illyustrativ keys orqali konkretlashtiramiz. Toshkentning chekka bir mahallasida ko’cha yoritgichi uzoq vaqtdan beri ishlamaydi: kechqurun bolalar tashqariga chiqmaydi, keksalar masjiddan qaytishda qoqiladi. Yigirma yil avval javob oddiy edi: oqsoqolga aytilardi, juma kuniga hashar e’lon qilinardi, o’n-o’n besh kishi yig’ilardi va kechga borib chiroq yonardi. Bugun esa mahallada yashovchi talabalar mahalla guruhiga yozadi, surat jo’natadi, ijtimoiy tarmoqda post qiladi; post yuzlab “layk” oladi, izohlarda “Bizdayam shunday!” deb yoziladi. Va chiroq yonmaydi.

Mazkur misolda loqayd ishtirokchi yo’q. Talabalar muammoni ko’rdi va yozdi, yuzlab kishi qo’llab-quvvatladi – har biri o’z o’rnida “faol” edi, ammo natija chiqmadi. Sotsiologik nuqtayi nazardan bu individual motivatsiya taqchilligi emas, niyatni harakatga transformatsiya qiluvchi vositachi tuzilmaning – institutsional o’zanning – yo’qligini ko’rsatuvchi tipik holat sifatida talqin qilinishi mumkin. Shu bois tadqiqot diqqat markazi aktor darajasidan (mikrodaraja) institutsional vositachilik darajasiga (mezodaraja) ko’chiriladi.

Muammoning miqyosi mamlakat profili fonida yaqqol namoyon bo’ladi. “Yangi O’zbekiston yoshlari – 2030” strategiyasiga ko’ra, mamlakatda 14–30 yoshdagi fuqarolar soni 9,5 mln nafarni, ya’ni aholining qariyb 25 foizini tashkil etadi [19]; Statistika agentligi ma’lumotlariga ko’ra, 2026-yil aprel holatiga doimiy aholi soni 38,4 mln nafardan oshgan [13]. “DataReportal”ning 2025-yil yanvar ma’lumotlariga ko’ra, medianali yosh – 27, internet foydalanuvchilari – 32,7 mln nafar (qamrov 89,0 foiz), mobil ulanishlar – 33,9 mln dona (92,2 foiz) [30]. Ayrim sanoat sharhlarida Telegram auditoriyasi internet foydalanuvchilarining qariyb 76 foizi darajasida baholanadi [31]; mazkur ko’rsatkich ikkilamchi media manbaga tayangani bois indikativ xarakterga ega va birlamchi statistik dalil sifatida qaralmaydi. Demak, raqamli safarbarlik uchun obyektiv shart-sharoit deyarli to’liq shakllangan. Biroq bu to’yinganlik ishtirokning ekvivalent o’sishiga aylanmaydi: Yoshlar ishlari agentligining hisobotiga ko’ra, 2024-yilda 9 452 ta mahallada o’tkazilgan so’rov orqali 8,3 mln nafar yoshning ehtiyojlari, iste’dodi va muammolari o’rganilgan, o’sha yili platforma orqali 17 yo’nalish bo’yicha 3 500 ta yoshlar taklifi kiritilgan [32]. Mazkur ikki ko’rsatkich turli o’lchov birliklariga ega (biri – qamrab olingan shaxslar soni, ikkinchisi – kiritilgan takliflar soni), shu bois ularning nisbati konvertatsiya koeffitsiyenti sifatida emas, faqat kattaliklar tartibidagi tafovutni ko’rsatuvchi indikativ o’lchov sifatida talqin qilinadi. Aynan shu “raqamli imkoniyat – institutsional natija” oralig’idagi nomutanosiblik tadqiqotning muammoli maydonidir.

Yoshlar haqida ko’pincha ayblovlardan iborat fikr eshutiladi: “Bu avlod faqat telefonga qaraydi”. Mazkur qarash mavjud ma’lumotlar bilan yetarlicha asoslanmagan: xuddi shu avlod to’y-marosimlarni uyushtirishda, xayriya yig’ishda va tabiiy ofat paytida o’z-o’zidan tashkil bo’lishda sezilarli faollik ko’rsatadi. Eng yirik miqdoriy ko’rsatkich – “Tashabbusli byudjet”: 2019-yilda loyihalarga 87,7 ming fuqaro ovoz bergan bo’lsa [33], 2026-yilning birinchi mavsumida bu ko’rsatkich 10,28 mln nafarni tashkil etdi [34]. Yetti yildagi 117 baravarlik o’sish yoshlarning ommaviy ijtimoiy passivligi haqidagi umumlashtirilgan tasavvur bilan kelishmaydi.

Tadqiqotning bosh farazi (H0): o’zbek jamiyatida ichki istakni jamoaviy foydaga aylantiruvchi uzoq asrlik institut – hashar mavjud bo’lgan; raqamli davr bu istakni emas, hasharning o’zanini zaiflashtirgan. Bosh faraz uch yordamchi farazga ajratiladi: H1 – faollikning harakatga aylanishi to’rtta institutsional shartning (shaxsiy chaqiriq, lokallashtirilgan vazifa, ko’rinadigan natija, jamoaviy e’tirof) birgalikda mavjudligiga bog’liq; H2 – ulardan kamida bittasi yo’qolganda faollik ramziy shaklga (“slaktivizm”ga) transformatsiyalanadi; H3 – to’rt shart raqamli muhitda funksional ekvivalentlar orqali tiklanganda ishtirok ko’lami tartib darajasida oshadi. Mazkur farazlar sifat metodologiyasi doirasida qiyosiy-institutsional tahlil orqali dastlabki tekshiruvdan o’tkaziladi; ularni statistik tasdiqlash keyingi miqdoriy bosqichning vazifasidir. Shundan kelib chiqib, asosiy savol “yoshlarni qanday faollashtirish kerak?” emas, “mavjud faollikni qaysi o’zan orqali jamiyat foydasiga burish mumkin?” tarzida qo’yiladi.

Maqsad – mazkur mexanizmning tuzilishini aniqlash, uning zaiflashuv sabablarini izohlash va milliy zaminga tayanuvchi qayta tiklash modelini taklif etish.

Vazifalar: hasharning strukturaviy-funksional dekompozitsiyasi; samaradorlik shartlarini nazariy asoslash; mazkur shartlarning raqamli muhitdagi holatini milliy platformalar ko’rsatkichlari asosida o’lchash; xorijiy yechimlarni qiyoslash; modelni o’lchanadigan indikatorlar bilan ishlab chiqish.

Birinchidan, faollikni harakatga aylantiruvchi institutning “to’rt ustuni” analitik konstruksiya sifatida ajratilib, har biri mustaqil nazariy an’ana – S. Verbaning fuqarolik ixtiyoriyligi modeli, E. Ostromning chegara tamoyili, A. Banduraning jamoaviy samaradorlik konsepsiyasi va P. Burdyoning ramziy kapital nazariyasiga – bog’landi. Ikkinchidan, “slaktivizm” institutsional natijalari bilan qo’llab-quvvatlandi. Uchinchidan, xorijiy modelni ko’chirish o’rniga milliy institut mantig’iga tayanuvchi “raqamli hashar” yondashuvi asoslandi. To’rtinchidan, “Mening fikrim” va “Tashabbusli byudjet” institutsional dizayn mezonlari bo’yicha qiyoslanib, to’rt ustunning to’liqligi bilan ishtirok ko’lami o’rtasidagi bog’liqlik ochiq ma’lumotlar asosida ko’rsatildi. Beshinchidan, M. Granovetterning bo’sag’a modeli o’zbek mahallasi kontekstiga tatbiq etilib, uning analitik imkoniyatlari sinovdan o’tkazildi.

Amaliy ahamiyati. Natijalar “Yangi O’zbekiston yoshlari – 2030” strategiyasida belgilangan 2030-yilga qadar 900 ming nafar yoshni ko’ngillilikka jalb etish vazifasini bajarishda hamda mahalla yoshlar yetakchisi institutining funksional samaradorligini oshirishda metodologik asos bo’lib xizmat qilishi mumkin [19].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Ferdinand Tyonnis (F. To’nnies) odamlar birligining ikki turini – jamoa (Gemeinschaft) va jamiyat (Gesellschaft) ni farqlagan [1]: jamoada munosabatlar shartnoma emas, urf-odat va qo’shnihilik bilan bog’lanadi. O’zbek mahallasi – bu tipning yaqqol namunasi, hashar esa uning ish quroli. Institutsional iqtisodiyot tilida hashar tranzaksion xarajatlarni sezilarli darajada tushirgan mexanizmdir: unda na shartnoma, na nazorat, na sanksiya zarur bo’lgan – bu funksiyalarni obro’ va qo’shnihilik nazorati bajargan. Emil Dyurkgeym (E. Durkheim) buni “mexanik birdamlik” deb atagan [2]: hasharga chiqqan odam “menga nima foyda?” demaydi, u “bizning mahalla” degani uchun chiqadi. Robert Mertonning (R. Merton) oshkora va yashirin funksiyalar konsepsiyasi [50] muhim nuansni ochadi: hasharning oshkora funksiyasi – jismoniy ishini bajarish, yashirin funksiyasi – jamoaviy identiklikni takror ishlab chiqarish; institut inqirozini aynan yashirin funksiyaning yo’qolishi chuqurroq belgilaydi.

Robert Patnem (R. Putnam) ijtimoiy kapital – odamlar o’rtasidagi ishonch va aloqalar zahirasi kamayib borayotganini ko’rsatgan [3]. Dalillari: 1980–1993-yillarda AQShda bouling bilan shug’ullanuvchilar 10 foizga oshgani holda liga o’yinchilari 40 foizga kamaygan, “ko’pchilik odamlarga ishonish mumkin” degan javob ulushi esa 58 foizdan (1960-yil) 37 foizga (1993-yil) pasaygan [48]. Patnem ijtimoiy kapitalning bog’lovchi (qarindosh, qo’shni) va ko’prik soluvchi (begonalar bilan) turlarini ajratadi; O’zbekiston sharoitida birinchi tur nisbatan kuchli, ikkinchisi zaif rivojlangan degan taxmin ilgari suriladi – bu taxmin alohida empirik tekshiruvni talab qiladi. Bu Mark Granovetterning (M. Granovetter) “zaif aloqalar kuchi” tezisi bilan bog’liq: yangi axborot va imkoniyat asosan zaif aloqalar orqali tarqaladi [36], shu bois faqat bog’lovchi kapitalga ega yoshning axborot maydoni o’z mahallasi bilan chegaralanadi. Jeyms Koulman (J. Coleman) esa ijtimoiy kapitalni munosabatlar tuzilmasining xossasi sifatida ta’riflab, uning uch shakli – majburiyat, axborot kanallari va sanksiyali normalar – tarmoq qanchalik yopiq bo’lsa, shunchalik samarali ishlashini ko’rsatadi [38].

Mankur Olson (M. Olson) yirik guruhlarda ratsional individ “tekinox’r ishtirokchi”ga (free rider) aylanishini, shu bois jamoaviy harakat faqat tanlab beriladigan rag’batlar mavjud bo’lgandagina yuzaga kelishini asoslagan [37]. Hasharda bunday rag’bat moddiy emas, ramziy bo’lgan: qatnashmagan kishi jarima to’lamagan, biroq obro’ yo’qotgan. Elinor Ostrom (E. Ostrom) umumiy resurslarni jamoaviy boshqarishning sakkiz institutsional dizayn tamoyilini ajratgan – ular orasida aniq belgilangan chegaralar, qaror qabul qilishda ishtirok, monitoring va bosqichma-bosqich sanksiyalar markaziy o’rin tutadi [39]. An’anaviy hashar amaliyoti mazkur tamoyillarning bir qismiga stixiyali ravishda javob bergan deb taxmin qilish mumkin; bu qiyoslash tavsifiy xarakterga ega bo’lib, tamoyillarning har biri bo’yicha alohida tarixiy-empirik tekshiruv talab etiladi.

Karl Mangeym (K. Mannheim) yoshlarni o’z tarixiy tajribasiga ega alohida ijtimoiy birlik sifatida ko’rishni asoslagan [4]: avlodlar farqi ayb emas, qonuniyat. Margaret Mid (M. Mead) prefigurativ madaniyat bosqichini – katta avlod yosh avloddan o’rganishga majbur bo’lgan davrni – ta’riflaydi [5]. Bundan institutsional oqibat kelib chiqadi: an’anaviy hasharda bilim va obro’ oqsoqolda jamlangan edi, raqamli muhitda esa ko’nikma yoshlarda – institutning legitimlik manbayi va operatsional kompetensiya manbayi ajralib qolgan (institutsional assimetriya).

Manuel Kastels (M. Castells) axborot texnologiyalari “yuqoridan pastga” munosabatlarni “tengdoshdan tengdoshga” munosabatlarga almashtirayotganini ko’rsatadi [6]. Lens Reyni (L. Rainie) va Barri Uellman (B. Wellman) buni “tarmoqlashgan individualizm” deb ataydi: shaxsning ijtimoiy tayanishi endi yagona zich guruh emas, o’zi shakllantirgan ko’p markazli tarmoqdir [44] – bu hasharning hududiy-jamoaviy mantig’iga qarshi turuvchi o’zgarish. Lens Bennett (W. L. Bennett) va Aleksandra Segerberg (A. Segerberg) “ulanishli harakat mantig’i”ni ilgari suradilar: raqamli safarbarlik rasmiy tashkilot orqali emas, shaxsiylashtirilgan ifoda almashish orqali yuzaga keladi – tez yig’iladi, ammo tashkiliy xotira hosil qilmaydi [43]. Rassel Dalton (R. Dalton) esa yoshlar ishtiroki yo’qolmayotganini, “burch asosidagi fuqarolik”dan “ishtirokchi fuqarolik” normasiga ko’chayotganini ko’rsatgan [45] – o’zgargan narsa faollik hajmi emas, uning institutsional shaklidir.

Bu qarashga kuchli e’tiroz mavjud. Yevgeniy Morozov (E. Morozov) “slaktivizm” tushunchasini ilgari surgan: jismoniy harakat, vaqt va tavakkal talab qilmaydigan virtual faollik real natija bermaydi [7]. Mazkur tezis bugun eksperimental tasdiqqa ega: K. Kristofferson, K. Uayt va J. Pelozaning (K. Kristofferson, K. White, J. Peloz) tadqiqotida bir necha ketma-ket tajriba orqali aniqlanganki, qo’llab-quvvatlashning dastlabki ramziy akti qanchalik ommaviy bo’lsa, keyinchalik mazmunli hissa qo’shish ehtimoli shunchalik past bo’ladi; ramziy akt shaxsiy tarzda amalga oshirilganda esa keyingi real hissa ehtimoli saqlanadi [47]. Sabab – ommaviy akt taassurot boshqaruvi ehtiyojini qondirib motivatsiyani “to’ydiradi”. Demak, “layk” faqat natijasiz emas – mualliflar o’rgangan eksperimental sharoitlarda keyingi real harakat ehtimolini pasaytiruvchi omilga aylanadi. Zeynep Tyufekchi (Z. Tufekci) masalaning boshqa qirrasini ochadi: tarmoq orqali tez to’plangan harakat tashkiliy chuqurlikka ega bo’lmaydi va birinchi qarshilikdayoq tarqaladi [8], zero tezkorlik

tashkilotchilik ko'nikmasini shakllantirgan "mashq davri"ni olib tashlagan.

Entoni Giddensning (A. Giddens) strukturalashuv nazariyasi kirish qismidagi holat uchun tayyor izoh beradi: harakat tuzilmani yaratadi, tuzilma esa harakatni shakllantiradi [9]. Talaba murojaat yozadi, javob kelmaydi – ongida "bunaqa ishning foydasi yo'q ekan" degan qoida o'rnashadi; keyingi safar u yozmaydi, signal bormaydi, tizim o'zgarmaydi. Nazariy jihatdan qaraganda, loqaydlik shaxsning tabiiy xossasi emas, takrorlanuvchi tajriba natijasida shakllanadigan xulq-atvor ko'rinishi sifatida talqin qilinadi. Buni Martin Seligmanning (M. Seligman) "o'rganilgan nochorlik" nazariyasi [56] va Albert Banduraning (A. Bandura) "jamoaviy samaradorlik" konsepsiyasi [42] to'ldiradi: harakat va natija bog'liqligi takroran uzilganda subyekt imkoniyat paydo bo'lganda ham harakatdan tiyiladi, guruhning natijaga erisha olishiga ishonchi esa uning haqiqiy safarbarlik salohiyatini belgilaydi. Mazkur nazariyalardan kelib chiqadigan kutilma shundan iboratki, javobsiz qoldirilgan murojaatlar takroriy murojaat ehtimolini pasaytirishi mumkin; mazkur kutilmani tekshirish uchun murojaat qiluvchilarning takroriy xatti-harakatini kuzatuvchi panel ma'lumotlari zarur. Albert Xirshmanning (A. Hirschman) "chiqish – ovoz – sadoqat" sxemasi buni yakunlaydi: tizim ovozga javob bermasa, a'zolar chiqish strategiyasiga o'tadi [41] – yoshlar kontekstida bu ijtimoiy passivlik yoki tashqi migratsiya shaklida namoyon bo'lishi mumkin.

Pyer Burdyo (P. Bourdieu) faollik imkoniyati hamma uchun teng emasligini ko'rsatadi [10]; uning ramziy kapital tushunchasi to'rtinchi ustun – jamoaviy e'tirof uchun nazariy asos beradi: e'tirof iqtisodiy resurs bo'lmasa-da, konvertatsiya qilinadigan kapital shaklidir. Shu mantiq Marsel Mossning (M. Mauss) sovg'a almashinuvi nazariyasida mavjud – berish, qabul qilish va qaytarish majburiyatlarining uzluksiz halqasi jamoani birlashtiradi [49]; hashar aynan shu halqaga asoslangan, raqamli platformalarda esa u uzilgan. Sidni Verba, Key Leman Shlozman va Genri Bredining (S. Verba, K. Schlozman, H. Brady) "Ovoz va tenglik" monografiyasida 15 mingdan ortiq respondentni qamrab olgan so'rov asosida ishtirok etmaslikning uch sababi ajratilgan – resurs yetishmasligi, motivatsiya yetishmasligi va safarbarlik tarmog'idan tashqarida qolish ("hech kim taklif qilmadi"), bunda uchinchi omil ko'pincha birinchi ikkitasidan kuchliroq ta'sir qiladi [40]. Sherri Arnsteynning (S. Arnstein) ishtirok narvoni [20] va uni yangilagan Archon Fungning (A. Fung) "demokratiya kubi" modeli [46] baholash mezonini beradi: ochiqlik va muloqot formati yetarli emas, hal qiluvchi o'lchov – ishtirokning qaror bilan bog'lanishidir.

O'zbek ilmiy an'anasida faollik masalasi ko'pincha ma'naviyat masalasi bilan birga qo'yiladi. Professor S. Otamuratov globallashtirish sharoitida millat ma'naviy xavfsizligini ta'minlashdagi hal qiluvchi omil milliy o'zlikni anglash va ma'naviy immunitet ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ma'naviyatga qarshi tahdidlar

asta-sekin, zimdan shakllanadi, shu bois oldindan mustahkam ma'naviy-ruhiy immunitet zarur. Olim milliy o'zlikni anglashni millatning eng muhim belgisi deb biladi va bu ikki omilni millatning ma'naviy salomatligini saqlashning bosh kafolati sifatida baholaydi [11]. Mazkur yondashuv faollikning qadriyat asoslarini yoritadi, biroq niyatni jamoaviy harakatga aylantiruvchi tashkiliy mexanizm masalasini ochiq qoldiradi. Milliy sotsiologiyada yoshlar ishtirokining institutsional dizayni – murojaatning harakatga aylanish yo'li, javob berish protsedurasi va e'tirof mexanizmlari – mustaqil tadqiqot predmeti sifatida hali yetarlicha o'rganilmagan; mavjud ishlarning aksariyati faollikning qadriyat, tarbiyaviy va boshqaruv jihatlariga qaratilgan. Shu sababli mazkur maqolada milliy kontekstga oid dalil bazasi sifatida bibliografik jihatdan tekshirish mumkin bo'lgan manbalar – birlamchi normativ hujjatlar ([12], [17]–[19], [52]–[54]), davlat organlarining ochiq hisobotlari ([32]–[34]) va xalqaro tashkilotlarning O'zbekiston bo'yicha tadqiqotlari ([51]) olindi. Mazkur tanlov ilmiy tekshiriluvchanlik tamoyilidan kelib chiqadi: rekvizitlari to'liq bo'lmagan yoki katalog qaydi bilan tasdiqlanmagan manbaga tayangan xulosa dalil qiymatiga ega emas.

Empirik jihatdan alohida ahamiyatga ega manba – UNICEF, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi va "Yuksalish" umummilliy harakati hamkorligida 2018–2020-yillarda 4 458 nafar respondent ishtirokidagi so'rov va 195 nafar ishtirokchi qamrab olingan 24 ta fokus-guruh muhokamasi asosida o'tkazilgan "O'zbekiston yoshlari: muammolar va istiqbollar" tadqiqoti [51]: unda 19–30 yosh guruhida NEET ulushi 54,6 foizni (ayollar orasida 74,0 foizni, erkaklar orasida 24,8 foizni) tashkil etgani, bandlarning atigi 2,9 foizi nodavlat sektorda (NNT, kasaba uyushmalari, yoshlar va xotin-qizlar tashkilotlari) ishlashi va ishonch doirasi asosan oila bilan chegaralanishi aniqlangan. Buni 2025-yildagi raqamli qamrov bilan qiyoslash muhim xulosaga olib keladi: texnologik kirish imkoniyati keskin kengaygan bo'lsa-da, institutsional ishonch va tashkiliy ishtirok bunga mutanosib o'smagan; demak, raqamli qamrovning o'zi ijtimoiy ishtirok uchun yetarli shart emas. Ayni paytda mazkur ikki o'lchov turli yillarga va turli metodikalarga tegishli ekani e'tiborga olinishi lozim: qiyoslash tendensiyani ko'rsatuvchi indikativ xarakterga ega.

Shunday qilib, xorijiy olimlar virtual faollikning zaifligini, milliy ilmiy an'ana esa faollikning ma'naviy-qadriyat asoslarini yoritgan, biroq ikki bo'shliq saqlanmoqda: hashar institutining ichki tuzilishi funksional-strukturaviy dekompozitsiya qilinmagan va uning raqamli ekvivalentlari masalasi qo'yilmagan; ishlab turgan platformalar esa institutsional dizayn nuqtayi nazaridan qiyoslanmagan, natijada samaradorlikdagi keskin farq izohsiz qolgan. Maqola shu bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot sifat (qiyosiy-institutsional) metodologiyasiga tayanadi. Institutsional tahlil, hujjatlar tahlili ([17], [18], [19], [12], [52], [54]), keys-stadi, kuzatuv va tavsif usullaridan foydalanildi. Dizayn ikki bosqichli: avval hasharning strukturaviy-funksional dekompozitsiyasi orqali samaradorlik shartlari ajratildi va nazariy asoslandi, so'ng ular analitik mezonlarga aylantirilib, ikki milliy platforma va to'rtta xorijiy yechim qiyoslandi. Qiyoslashda "eng o'xshash holatlar" (most similar systems design) mantig'i qo'llanildi: har ikki milliy platforma bir xil texnologik infratuzilma, huquqiy makon va aholi ustida ishlaydi, biroq institutsional dizayni bilan farqlanadi. Mazkur dizayn tafovutni dizayn omili bilan bog'lash bo'yicha faraz ilgari surish imkonini beradi, ammo sababiy xulosa chiqarish uchun yetarli emas. Empirik baza – rasmiy huquqiy hujjatlar, davlat organlari hisobotlari, xalqaro tashkilotlar (BMTTD, UNICEF, OECD, OGP) materiallari va raqamli statistika platformalari ma'lumotlari. Tadqiqotning cheklovlari quyidagilardan iborat va ular maqolaning barcha keyingi qismlarida izchil hisobga olinadi. Birinchidan, ma'lumotlar ikkilamchi statistikaga tayanadi va vakillik so'rovi bilan qo'llab-

quvvatlanmagan. Ikkinchidan, qiyoslanayotgan ikki platforma institutsional dizayndan tashqari maqsadi, auditoriyasi, moliyaviy rag'bat, targ'ibot ko'lami va huquqiy mexanizmlari bo'yicha ham farqlanadi; mazkur o'zgaruvchilar nazorat qilinmagan. Uchinchidan, ochiq ma'lumotlarda ishtirokchilar tarkibi yosh guruhlari bo'yicha ajratilmagan, shu bois platforma ko'rsatkichlari bevosita yoshlar faolligi o'lchovi sifatida qaralmaydi. To'rtinchidan, "to'rt ustun" sxemasi empirik yo'l bilan ajratilgan omillar to'plami emas, nazariy an'analarda asosida qurilgan analitik konstruksiya bo'lib, uning validligi keyinchalik o'lchov vositalari orqali tekshirilishi lozim. Shu sabablarga ko'ra maqolada keltirilgan barcha bog'lanishlar sababiy emas, assosiativ (qiyosiy-tavsifiy) ma'noda talqin qilinadi va xulosalar O'zbekiston kontekstiga nisbatan formulalangan. Aynan shu cheklavlar keyingi miqdoriy tadqiqot dasturining asosini belgilaydi.

Muhokama.

Sof sotsiologik ko'z bilan qaralsa, hashar oddiy odat emas, puxta ishlangan ijtimoiy texnologiyadir. Quyida hasharning samaradorlik shartlari strukturaviy-funksional dekompozitsiya orqali to'rtta elementga ajratiladi. Ta'kidlash lozimki, mazkur to'rtlik empirik yo'l bilan (masalan, omilli tahlil orqali) ajratilgan emas, balki yuqorida keltirilgan nazariy an'analarda asosida qurilgan analitik konstruksiya bo'lib, quyida har biri institutsional shart sifatida operatsionallashtiriladi va keyinchalik o'lchanadigan indikatorlar bilan ta'minlanadi.

Birinci ustun – chaqiruvchi ovoz. Hashar obro'li va jamoada tan olingan shaxs tomonidan yuzma-yuz e'lon qilingan; bunday murojaat adresli va obro'li manbadan chiqqani bois uni javobsiz qoldirish ijtimoiy narxga ega bo'lgan. Verba modeli buni qo'llab-quvvatlaydi: ishtirok etmaganlarning muhim qismi resurs yoki motivatsiya taqchilligidan emas, hech kim taklif qilmagani sababli chetda qolgan [40]. Raqamli muhitda chaqiruvchi shaxssizlashgan: "Kim xohlasa, qatnashsin" mazmunidagi post har kimga, demak hech kimga yo'naltirilgan – mas'uliyat diffuziyasi yuzaga keladi.

Ikkinchi ustun – aniq manzil va vaqt. An'anaviy hasharda vazifa abstrakt emas, "juma kuni soat sakkizda guzar oldiga, belkurak bilan" tarzida berilgan. Ostromning "aniq belgilangan chegaralar" tamoyili shu funksiyani bajaradi [39]: kim, qayerda, qachon va nima qilishi belgilanmagan jamoaviy harakat boshlanmaydi, zero bu shart ishtirokning kognitiv va tashkiliy xarajatlarini minimallashtiradi. Kuzatilgan holatlar shuni ko'rsatadiki, raqamli murojaatlarning sezilarli qismi aynan shu bosqichda to'xtaydi: muammo bayon qilinadi, ammo konkret harakat, joy va muddat ko'rsatilmaydi – niyat bor, harakat rejasi yo'q. Mazkur baho sifat kuzatuviga tayanadi; uning ulushini aniqlash uchun umumrespublika miqyosidagi murojaatlar massivining kontent-tahlili zarur, bunday tahlil hozircha e'lon qilinmagan.

Uchinchi ustun – ko'rinadigan natija. Hasharning natijasi bir kun ichida jismonan ko'zga tashlangan: ariq tozalandi, chiroq yondi. Bu Bandura ta'riflagan jamoaviy samaradorlik ishonchini mustahkamlaydi [42] va qayta ishtirok ehtimolini oshiruvchi teskari aloqa halqasini yopadi; teskari holatda esa Seligman tavsiflagan o'rganilgan nochorlik mexanizmi ishga tushadi [56]. Shu bois natijani ko'rsatish texnik funksiya emas, institutni saqlab turuvchi mexanizmdir.

To'rtinchi ustun – jamoaviy e'tirof. Hasharda qatnashgan kishiga maosh to'lanmagan, ammo u boshqa mukofot olgan: ommaviy tashakkur va obro'ning oshishi. Burdyoda bu – ramziy kapital [10], Mossda – o'zaro qaytarim halqasining yopilishi [49], Olsonda esa "tekinoxor ishtirokchi" muammosini hal qiluvchi tanlab beriladigan rag'bat [37]. Raqamli "layk" e'tirofning eng arzon shakli: u cheklangan resursga – vaqt, obro' yoki riskka – asoslanmagani bois ijtimoiy signal qiymatini yo'qotadi.

Hasharning samaradorligi majburlashda ham, targ'ibotda ham emas, tizimning tugallanganligida edi. Analitik jihatdan ustunlar o'zaro qo'shiluvchi emas, ko'paytiruvchi munosabatda deb faraz qilinadi: biri nolga aylansa, umumiy natija ham nolga yaqinlashadi. Mazkur ko'paytiruvchi model matematik yoki statistik jihatdan isbotlanmagan; u evristik konstruksiya bo'lib, bitta ustunning zaiflashuvi nega butun mexanizmni ishdan chiqarishi mumkinligini tushuntirish uchun taklif etiladi. Uni tekshirish yo'li – to'rt indikatorni mustaqil o'lchab, ular o'rtasidagi additiv va multiplikativ modellarni ishtirok ko'rsatkichi bo'yicha qiyoslovchi regression tahlildir. Kirish qismidagi holatni shu mezon bo'yicha tekshirsak: chaqiruvchi ovoz – yo'q, aniq manzil va vaqt – yo'q, ko'rinadigan natija – yo'q, e'tirof – faqat "layk" darajasida. Talabalarning niyatida ham, ko'nikmasida ham kamchilik yo'q edi – ular to'rt ustundan mahrum muhitda harakat qilishdi. Demak, "slaktivizm"ni axloqiy nuqson sifatida emas, institutsional bo'shliqning mumkin bo'lgan ko'rinishi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq; eksperimental ma'lumotlar [47] bunday talqinni qo'llab-quvvatlaydi: narvon qurilmagan sharoitda raqamli faollikni rag'batlantirish kontrproduktiv bo'lishi mumkin.

1-jadval. To'rt institutsional ustunning uch muhitdagi qiyosiy holati

Manba: muallif tomonidan [32; 33; 34] ma'lumotlari asosida tuzilgan. Izoh: jadvaldagi "to'liq/qisman/yo'q/qadrsizlangan" baholari muallifning sifat ekspert bahosi bo'lib, o'lchov shkalasi asosida olingan miqdoriy qiymatlar emas; "ishtirok ko'lami" satridagi raqamlar birlamchi manbalardan keltirilgan.

Institutsional ustun An'anaviy hashar Ijtimoiy tarmoqdagi faollik "Tashabbusli byudjet"

Chaqiruvchi ovoz (adreslilik) To'liq: obro'li shaxsning yuzma-yuz chaqirig'i Yo'q: shaxssiz ommaviy murojaat

Qisman: hududiy safarbarlik va targ'ibot

Aniq manzil va vaqt (chegaralanganlik) To'liq: joy, sana, vazifa oldindan belgilangan Yo'q: harakat rejasi shakllantirilmaydi To'liq: konkret obyekt, 10 kunlik ovoz oynasi (2026-yil 11–20-mart)

Ko'rinadigan natija (teskari aloqa) To'liq: natija bir kunda jismonan ko'rinadi Yo'q: harakat–natija bog'lanishi uzilgan To'liq: g'oliblar e'lon qilinadi va moliyalashtiriladi

Jamoaviy e'tirof (ramziy kapital) To'liq: ommaviy tashakkur, obro' oshishi Qadrsizlangan: "layk" cheklangan resursga asoslanmagan Qisman: hududiy g'alaba jamoaviy yutuq sifatida

Ishtirok ko'lami Mahalla darajasida yuqori Reaksiya yuqori; konvertatsiya darajasi tizimli o'lchanmagan (miqdoriy baho mavjud emas) 2019-yil – 87,7 ming ovoz; 2026-yil – 10,28 mln ovoz

Jadval bir tendensiyani ko'rsatadi: to'rt ustundan ikkitasi to'liq va ikkitasi qisman ishlagan mexanizmda ishtirok ko'lami o'n million darajasiga yetgan; ustunlarning aksariyati zaiflashgan muhitda esa dastlabki reaksiya yuqori bo'lishiga

qaramay, uning real harakatga konvertatsiyasi sezilmaydi. Mazkur kuzatuv H1 va H3 farazlariga mos keladi, biroq ularni tasdiqlangan deb hisoblash uchun yetarli emas: jadval qiyosiy-tavsifiy vosita bo'lib, nazorat o'zgaruvchilarini hisobga olmaydi.

Mazkur mezon o'zbek jamiyatidagi uch kuzatiladigan hodisani ham izohlash imkonini beradi. Birinchisi – to'yga ming kishi, hasharga o'n kishi. To'yda taklifnoma nomma-nom yetkaziladi, joy va soat aniq belgilanadi, tadbirning o'zi ko'rinadigan natijadir, qatnashmaganlik esa ijtimoiy bahoga uchraydi – to'rt ustun ham joyida; bugungi hashar amaliyotining bir qismida esa mazkur shartlar sezilarli darajada zaiflashgan. Ta'kidlash lozimki, bu baho barcha hududlar bo'yicha umumlashtirilmaydi: hashar amaliyoti hududiy jihatdan sezilarli farqlanadi va uning holatini aniqlash maxsus dala tadqiqotini talab qiladi. Ikkinchisi – bir xil telefon, boshqacha natija. Bir xil qurilmaga ega ikki yoshning axborot maydoni tarmoq pozitsiyasi bilan farqlanadi: bog'lovchi kapitalgina mavjud bo'lsa, yosh faqat mahallasi doirasidagi ma'lumotni oladi [36]. Uchinchisi – ofat bo'lsa uyushamiz, kundalik ishda yo'q. Favqulodda vaziyat chaqiriqni shoshilinch, vazifani aniq, natijani ko'rinadigan qiladi va ishtirokni yuqori ramziy qiymatga ega akt darajasiga ko'taradi. Ofat – institutning tabiiy, ammo qisqa muddatli o'rnini bosuvchisi; strategik vazifa shu to'rt shartni favqulodda vaziyatsiz, muntazam ishlab turadigan mexanizm yaratishdir.

Har qanday ijtimoiy harakat odamdan vaqt, kuch, pul yoki ko'nikma talab qiladi. Mazkur talabni tadqiqotda ishtirok bo'sag'asi deb ataymiz. Tushuncha Granovetterning bo'sag'a modeliga tayanadi: har bir individ harakatga qo'shilishi uchun undan oldin qancha kishi qo'shilgan bo'lishi kerakligini belgilovchi shaxsiy bo'sag'aga ega, harakatning ko'lamiga esa mazkur bo'sag'alar taqsimotiga bog'liq [35]. Modelning hal qiluvchi xulosasi shuki, bir xil qadriyat va resursga ega ikki guruh bo'sag'alar taqsimotidagi kichik farq tufayli qarama-qarshi natija berishi mumkin – demak, tafovutni faqat ongda o'zgarish emas, bo'sag'larni o'zgartiruvchi institutsional omillar ham tushuntiradi.

Mazkur qoidalarni tekshirish uchun mamlakatda amal qilayotgan ikki raqamli ishtirok mexanizmini qiyoslash eng qulay imkoniyat beradi. Birinchi holat – “Mening fikrim” veb-portali. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashi va Senati Kengashining 2025-yil 12-fevraldagi qo'shma qaroriga ko'ra, 2018-yilda tashkil etilgan portalga yetti yildan ortiq davr mobaynida 6 900 dan ortiq elektron jamoaviy murojaat kelib tushgan, shundan belgilangan talablarga javob berganlari – 495 tasi (7,2 foizi) ishchi komissiya tomonidan ovoz berishga qo'yilgan [53]. Ovozlar chegarasi Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi darajasida 10 ming, viloyat kengashlarida 5 ming, tuman kengashlarida 1 ming etib belgilangan; ovoz berish muddati – 90 kun, javob muddati – 60 kun. Muhim metodologik izoh: qolgan 92,8 foiz murojaatning barchasi asossiz rad etilgan degan xulosa chiqarish noto'g'ri bo'lar edi. Nizomga ko'ra, murojaat bir qator obyektiv asoslar bo'yicha ovoz berishga qo'yilmaydi – shaxsiy xarakterdagi shikoyat bo'lsa, bir yil ichida takrorlansa, vakolatli organ salohiyatidan tashqarida bo'lsa, budjet va soliq masalalariga tegishli bo'lsa, sud ish yurituv predmeti bo'lsa yoki qonun taqiqlagan mavzuni ko'tarsa [53]. Rad etish asoslarining taqsimoti ochiq e'lon qilinmagani bois, ushbu ulushning qaysi qismi rasmiy talablarga muvofiqlik bilan, qaysi qismi esa dizayn kamchiliklari bilan bog'liqligini aniqlash mumkin emas. Shu bois quyidagi tahlilda 7,2 foizlik ko'rsatkich rad etish emas, konvertatsiya darajasi o'lchovi sifatida qo'llaniladi. Institutsional dizayn nuqtayi nazaridan murojaat muallifi to'rt ustunning birortasini ham kafolatlangan holda olmaydi: unga shaxsan hech kim murojaat qilmaydi, jarayonning oraliq natijasi ko'rinmaydi, e'tirof mexanizmi esa nazarda tutilmagan.

Ikkinchi holat – “Tashabbusli byudjet” mexanizmi. 2019-yilda joriy etilgan tartib fuqaroga o'z hududidagi konkret obyekt bo'yicha taklif kiritish va ovoz berish imkonini beradi. Dinamika: 2019-yilda 28 704 ta taklif kiritilib, 87,7 ming fuqaro ovoz bergan va 1 102 ta loyiha tanlangan; 2022-yilda takliflar 69,7 mingga, ovoz berganlar 6,7 mln nafarga, loyihalar 2 354 taga yetgan [33]. 2026-yilning birinchi mavsumida 21 049 ta tashabbus kiritilib, 17 424 tasi saralashdan o'tgan, loyihalarga 10,28 mln ovoz berilgan, 1 996 ta loyiha g'olib bo'lgan va 3 005,8 mlrd so'm ajratilgan; ovoz berish 2026-yil 11–20-mart kunlari, ya'ni 10 kunlik oynada o'tkazilgan. G'olib loyihalar tarkibida yo'l ta'miri – 868 ta, ta'lim muassasalari – 566 ta, sog'liqni saqlash obyektlari – 163 ta [34].

Qiyosiy tahlil tadqiqotning markaziy empirik kuzatuvini beradi. Bir xil mamlakatda, bir xil infratuzilma va bir xil aholi ustida ishlaydigan platformalardan biri yetti yil ichida 87,7 mingdan 10,28 mln ovozgacha, ya'ni 117 baravar o'sgan, ikkinchisi xuddi shu davrda jami 6 900 ta murojaat to'plab, ulardan 7,2 foizinigina ovoz berishga chiqara olgan. Bir xil o'lchov birligida: “Mening fikrim”ga o'rtacha yiliga qariyb 985 ta murojaat kelib tushgan bo'lsa, “Tashabbusli byudjet”ga faqat bir mavsumda 21 049 ta tashabbus kiritilgan – tashabbus oqimidagi farq bir tartib darajasidan ortadi, ovozlar bo'yicha esa uch tartib darajasiga yaqinlashadi. Mazkur tafovutni yoshlarning qadriyatlari yoki texnik imkoniyatlari bilan izohlash qiyin, chunki ular har ikki holatda bir xil. Tizimli farqlardan biri – institutsional dizayn: “Tashabbusli byudjet”da vazifa lokallashtirilgan (ikkinchi ustun), natija esa moliyalashtirish qarori shaklida oshkora qaytariladi (uchinchi ustun). Shu bilan birga, ikki platforma dizayndan tashqari yana bir necha jihat bo'yicha farqlanadi: maqsadi (byudjet mablag'ini taqsimlash – qonunchilik tashabbusi), auditoriyasi va hududiy qamrovi, bevosita moliyaviy natijaga ega bo'lish omili, targ'ibot ko'lamiga va resurs ta'minoti hamda huquqiy mexanizmi. Mazkur o'zgaruvchilar nazorat qilinmagani bois to'rt ustun to'liqligi bilan ishtirok ko'lamiga o'rtasidagi bog'liqlik assotsiativ deb baholanadi; uni sababiy bog'lanish sifatida talqin qilish uchun kamida qo'shimcha nazorat o'zgaruvchilariga ega ko'p omilli tahlil yoki tabiiy eksperiment zarur. Ehtiyotkorlik bilan formulalanadigan nazariy taxmin quyidagicha: raqamli muhitda ishtirokni oshirishning samarali richaglaridan biri targ'ibot emas, bo'sag'ani pasaytirish va natijani ko'rinadigan qilishdan iborat institutsional yechimlar bo'lishi mumkin.

Bu taxmin mahalla darajasidagi institutsional resurs bilan solishtirilganda yanada aniq ma'no kasb etadi. PQ-92-son Qaroriga muvofiq mamlakatda 10 008 ta mahalla yoshlar yetakchisi shtat birligi joriy etilgan [52], 2024-yilda esa 9 452 ta mahallada 8,3 mln nafar yoshning ehtiyojlari o'rganilgan [32]. Demak, birinchi ustun uchun zarur infratuzilma allaqachon mavjud: har bir mahallada nomi va yuzi ma'lum mas'ul shaxs ishlaydi. Muammo institutning yo'qligida emas, uning funksional yo'nalishida bo'lishi mumkin. Mazkur baho muallifning shaxsiy taxmini emas, normativ hujjatda qayd etilgan holatga tayanadi: 2025-yil 10-sentyabrdagi PF-163-son Farmon bilan yoshlar yetakchilarining vazifalari to'rtta asosiy

yo'nalish bilan chegaralangan, ularni asosiy vazifalariga aloqador bo'lmagan ishlarga jalb etish taqiqlangan, faoliyat samaradorligini baholash esa yagona elektron platforma orqali avtomatlashtirilgan tartibda amalga oshiriladigan qilib belgilangan [12]. Bu esa yetakchilarning vaqt va resurs taqsimotidagi nomutanosiblik davlat darajasida tan olinganini va normativ yechim qabul qilinganini ko'rsatadi. Ayni paytda mazkur chora natijalarini baholash uchun hali yetarli davr o'tmagan. Bilvosita ko'rsatkich: 2024-yilda platforma orqali kiritilgan yoshlar takliflari 3 500 tani tashkil etgan [32], "Tashabbusli byudjet" da esa bir mavsumdagi tashabbuslar soni 21 049 ta – olti baravardan ko'p. Ikki ko'rsatkich turli platformalar va turli protseduralarga tegishli bo'lgani bois bevosita qiyoslanmaydi; ular faqat tashabbus oqimidagi kattaliklar tartibi tafovutini ko'rsatadi [34].

Xorijiy tajribani o'rganishda mexanizmni ijtimoiy sharoitidan ajratib olish xatosidan qochish kerak. Quyida to'rtta yechim to'rt ustun mezonida qiyoslanadi. Estoniyada 2016-yilda ishga tushirilgan rahvaalgatus.ee portalida tashabbus parlament muhokamasiga chiqishi uchun 1 000 ta elektron imzo talab etiladi, Riigikogu esa olti oy ichida mualliflar ishtirokida muhokama o'tkazib rasmiy javob berishga majbur [21, 22, 23]. OECD OPSI hujjatiga ko'ra, portal orqali parlamentga 25 ta jamoaviy taklif yuborilgan, 26 dan ortiq taklif bo'yicha 46 mingdan ziyod elektron imzo to'plangan va 4 ta tashabbus qonunga aylangan [21]. Muhim metodologik nuans: mutlaq raqamda Estoniyaning 1 000 imzoli chegarasi past ko'rinsa-da, aholiga nisbatan manzara teskari – Estoniyada bu 1,4 mln aholining qariyb 0,07 foizi, O'zbekistonda esa 38,4 mln aholining atigi 0,026 foizidir. Demak, milliy platformadagi asosiy to'siq ovozlarning chegarasida emas, undan oldingi bosqichda – murojaatning rasmiy talablarga muvofiqlashtirilishi va shakllantirilishi bosqichida joylashgan [53]; Estoniya modelining yutug'i ham raqamda emas, protsedurada – javob berish majburiyati huquqiy normaga aylantirilgan.

Singapur boshqa yo'ldan borgan. 2015-yilda ishga tushirilgan "OneService" ilovasida fuqaro atigi bitta ish qiladi – singan narsani suratga oladi, yo'naltirishni esa geolokatsiya va toifalash algoritmi hal qiladi [24, 25]. Munitsipal xizmatlar boshqarmasi (MSO) hisobotiga ko'ra, tizim orqali 11 ta davlat organi va 16 ta hududiy kengash yagona keys-boshqaruv tizimida bog'langan; 2017-yil holatiga ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar soni 114 ming nafarni, qabul qilingan murojaatlar esa 153 mingga tashkil etgan, organ murojaatni besh ish kuni ichida qabul qilmasa, tizim ogohlantirish yuboradi [16]. Model bo'sag'ani bir marta suratga olish darajasiga tushirgan, biroq faqat kuchli idoralararo integratsiya sharoitida ishlaydi. Yevropada ko'ngilli mehnati rasmiy hujjat bilan tasdiqlanadi [26]: 2007-yilda joriy etilgan Youthpass tizimida dastlabki yili 172 ta tashkilotning 200 ta loyihasi doirasida 2 577 ta sertifikat berilgan bo'lsa,

2024-yilda 216 166 ta, 2025-yilda 234 594 ta sertifikat berilgan; 2026-yil 7-avgust holatiga umumiy son 2 213 335 tani tashkil etadi [55]. Bu mexanizm e'tirofni hujjatlashtirilgan va mehnat bozorida konvertatsiya qilinadigan shaklga aylantirgan – Burdyo tezisining amaliyotdagi eng aniq namunasi [10]. Janubiy Koreyada 2005-yilda ishga tushirilgan "e-People" platformasi 303 ta davlat organini yagona tizimga birlashtirgan; mavjud tavsiflarga ko'ra, dastlabki uch yilda (2005–2008) murojaatlarni ko'rib chiqish muddati 40 foizga qisqargan, takliflar soni 200 foizga oshgan, umumiy qoniqish darajasi 70 foizga ko'tarilgan [15]. Keyingi davr rasmiy ma'lumotlari mazkur tendensiyaning tasdiqlaydi: murojaatlar soni 2006-yildagi 402 442 tadan 2015-yilda 1,9 mln tagacha oshgan, oddiy murojaatni ko'rib chiqish muddati 7,8 kundan 6,2 kunga, murakkab murojaatlar bo'yicha 14,4 kundan 7,4 kunga qisqargan, foydalanuvchilar qoniqishi esa 2010-yildagi 66,6 foizdan 2014-yilda 84,4 foizga ko'tarilgan [14]. Koreya modelining hissasi – fuqaroning "qaysi idoraga murojaat qilay?" degan kognitiv yukini bartaraf etganidir.

Ayni paytda xorijiy tajribaning ikki jihati milliy sharoitga bevosita ko'chirilishi maqsadga muvofiq emas: algoritmik shaxsiylashtirishga haddan ziyod tayanish va ishtirokni ma'muriy kompaniya usulida tashkil etish. Eli Parizer (E. Pariser) ta'riflagan "filtr pufagi" sharoitida personalizatsiya ijtimoiy tashabbuslar haqidagi axborotni tarmoqning muayyan segmentida yopib qo'yadi va platforma ko'prik soluvchi kapital hosil qilish o'rniga bog'lovchi kapitalni takror ishlab chiqaradi [29]. Shoshana Zuboffning (S. Zuboff) "nazorat kapitalizmi" konsepsiyasi esa fuqarolik faolligi ma'lumotlarining to'planishi ishtirok erkinligiga tahdidga aylanishi mumkinligini ko'rsatadi [28]. Shu bois platformalarni loyihalashda ma'lumotlarni minimallashtirish tamoyili dastlabki bosqichdanoq inobatga olinishi lozim.

Natijalar. Tadqiqot natijasida "raqamli hashar" modeli taklif etiladi: milliy institutimizning to'rt ustunini yangi muhitda qayta tiklash. Model funksional ekvivalentlik tamoyiliga asoslanadi – institutning tashqi shakli o'zgarishi kerak, funksiyalari esa saqlanishi shart. Birinchi ustun – ovozga yuz qaytarish: har bir tashabbus bo'yicha aniq shaxs – mahalla yoshlar yetakchisi yoki muvofiqlashtiruvchi – nomi va aloqasi bilan mas'ul etib belgilanadi; o'lchov birligi ommaviy chaqiriqlar emas, shaxsiy taklifnomalar ulushi bo'lishi kerak [40]. Ikkinchi ustun – manzil va sana: tashabbus qabul qilinayotgan bosqichdayoq uch parametr – geografik obyekt, kutilayotgan natija va muddat – bo'yicha strukturalanadi; to'ldirilgan murojaat "fikir" toifasida qoladi [39]. Uchinchi ustun – natijani ko'rsatish: har bir tashabbusning holati kuzatiladigan, yakuniy natija esa o'lchanadigan ko'rsatkich (bajarildi; qisman bajarildi; asoslangan rad javobi) shaklida bo'lishi lozim – asoslangan rad ham natija, javobsizlik esa natija emas. To'rtinchi ustun – e'tirofni tiklash: e'tirof "layk" darajasidan rasmiy qaydnoma yoki tavsifnoma maqomiga ko'tariladi [55]. To'rt ustun ustiga ikki tamoyil qo'shiladi: pog'onalik (ishtirokning eng past va eng yuqori shakllari o'rtasida oraliq pog'onalar bo'lmasa, bo'sag'asi yuqori guruhlar harakatga umuman kirishmaydi [35]) va ichkarida bo'lish (tashabbus muallifi qaror jarayonidan tashqarida qoldirilsa, u chiqish strategiyasiga o'tadi [41]). "Yangi O'zbekiston yoshlari – 2030" strategiyasida belgilangan 900 ming nafar yoshni ko'ngillilikka jalb etish ko'rsatkichiga [19] erishishning institutsional sharti sifatida aynan to'rt ustunning birgalikda ishlashi taklif etiladi – ularsiz ko'ngillilar bazasi ro'yxat darajasida qolib, real faoliyatga aylanmasligi ehtimoli yuqori.

Takliflar quyidagilardan iborat:

1. Javobsizlikka chek qo'yish. Belgilangan qo'llab-quvvatlashga ega tashabbus bo'yicha vakolatli organning aniq muddatda mazmunli javob berish majburiyati belgilanishi taklif etiladi; "ko'rib chiqilmoqda" javob deb hisoblanmasligi lozim. Estoniyada bu majburiyat qonun darajasida mustahkamlangan [21]; O'zbekistonda amaldagi 60 kunlik muddat [53] saqlangan holda javobning mazmunlilik mezonlari – qaror, uning asosi va bajarilish muddati – normativ belgilanishi

mumkin.

2. Tashabbus muallifini muhokamaga taklif etish. Muallifning o'z taklifi muhokamasida shaxsan qatnashishi – Estoniya tajribasidagi eng kam xarajatli, ammo ta'sirchan element: u yoshni “ariza beruvchi”dan “suhbatdosh”ga aylantiradi va Fung mantig'iga ko'ra ishtirokni maslahat maqomidan hamkorlik maqomiga ko'taradi [46].

3. Ishtirok narvonini qurish. “Layk” bilan rasmiy ariza orasiga kamida uchta oraliq pog'ona kiritilishi maqsadga muvofiq: suratli xabar, bir martali ko'ngilli ish, doimiy guruh a'zoligi; Singapurda birinchi pog'ona minimallashtirilgan – fuqarodan faqat surat talab qilinadi [25]. Har bir pog'onaning bo'sag'asi oldingisidan oshib boradigan tarzda kalibrlanishi lozim.

4. Mahalla yoshlar yetakchisi bo'g'inini funksional qayta sozlash. Taklif noldan institut yaratishni emas, mavjudini qayta yo'naltirishni nazarda tutadi:

2022-yildan buyon 10 008 ta shtat birligi faoliyat ko'rsatmoqda [52]. Mazkur yo'nalishdagi normativ harakat allaqachon boshlangan: PF-163-son Farmon bilan yetakchi faoliyatini baholash asosiy vazifalarga bog'langan va avtomatlashtirilgan tartibga o'tkazilgan [12]. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, baholash mezonlariga safarbarlik natijalarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarni – shaxsan taklif qilingan yoshlar soni va bajarilgan tashabbuslar sonini – qo'shish maqsadga muvofiq. Yetakchini tanlash tartibiga doir masala esa alohida muhokama predmeti bo'lib, mazkur maqolada normativ talab sifatida emas, ilmiy muhokamaga qo'yiladigan variant sifatida taklif etiladi: nomzodlarni saralashda mahalladagi yoshlarning fikrini hisobga oluvchi maslahat mexanizmini cheklangan hududlarda sinov tartibida joriy etib, uning samarasini baholash mumkin.

5. “Oldin va keyin” tamoyilini joriy etish. Har bir bajarilgan tashabbus bo'yicha ikki surat va qisqa matndan iborat ochiq hisobot e'lon qilinishi taklif etiladi – bu ishonchni mustahkamlashning kam xarajatli vositasi va jamoaviy samaradorlikni takror ishlab chiqarish mexanizmidir [42].

6. Ko'ngillilik qaydnomasini yuritish. Ko'ngilli faoliyati qayd etib borilib, ta'lim va mehnat sohasida e'tiborga olinadigan tavsifnoma shaklida rasmiylashtirilishi mumkin; asosiy rag'bat obro'viy bo'lishi maqsadga muvofiq. “Volontyorlik faoliyati to'g'risida”gi Qonun [54] huquqiy asos yaratgan bo'lsa-da, tajribani qabul va tanlov jarayonlarida hisobga olish tartibi belgilanmagan; Youthpass modeli sertifikatni soatlar emas, kompetensiyalar tavsifi bilan to'ldirishni ko'rsatadi [55].

7. Chekka hududlarga axborot ko'prigini qurish. Grant va tanlovlar haqidagi xabar faqat portal orqali emas, chekka tumanlardagi ta'lim muassasalari va mahallalar orqali maqsadli yetkazilishi lozim: zaif aloqalar nazariyasiga ko'ra [36], faqat bog'lovchi kapitalga ega yoshlar axborot maydonidan tashqarida qoladi, shu bois o'lchov birligi qamrov emas, chekka hududlardagi qabul qilish darajasi bo'lishi kerak.

8. Ishtirok ixtiyoriyligini muhofaza qilish. Platformadagi faollik ko'rsatkichini xodim yoki tashkilot faoliyatini baholovchi hisobot mezoniga aylantirmaslik tavsiya etiladi. Nazariy asos quyidagicha: ma'muriy rag'bat yoki bosim ostida amalga oshirilgan ramziy akt ichki motivatsiyani mustahkamlamay, uning o'rnini egallashi mumkin [47]; bunday sharoitda ko'rsatkich ishtirokning haqiqiy darajasini emas, hisobot intizomini o'lchay boshlaydi va o'zining axborot qiymatini yo'qotadi. Mazkur tavsiya mavjud amaliyot bahosi emas, tizimni loyihalashda oldini olish lozim bo'lgan risk sifatida formulalanadi.

9. Modelning o'lchanadigan indikatorlarini joriy etish. To'rt ustunga mos to'rt indikator kiritilishi taklif etiladi: adretilik koeffitsiyenti (shaxsan taklif qilingan yoshlarning umumiy qamrovga nisbati); strukturalanganlik ulushi (obyekt, natija va muddati ko'rsatilgan tashabbuslar ulushi); yopilish darajasi (mazmunli javob olgan yoki bajarilgan tashabbuslar ulushi); konvertatsiya darajasi (ramziy qo'llab-quvvatlashdan real ishtirokka o'tganlar ulushi). Barchasi platformalarning avtomatik jurnalidan hisoblanadi va qo'shimcha hisobot yuki tug'dirmaydi. Aynan shu to'rt indikator maqolada ilgari surilgan ko'paytiruvchi modelni statistik tekshirish uchun zarur o'zgaruvchilar to'plamini beradi.

10. Keyingi tadqiqot yo'nalishini belgilash. Keyingi bosqichda uch hududiy tipni (yirik shahar, tuman markazi, chekka qishloq) qamrovchi kvotali tanlanma asosida chuqurlashtirilgan suhbatlar o'tkazilib, to'rt ustundan qaysi biri eng zaif ekani aniqlanishi va natijalar administrativ statistika bilan triangulyatsiya qilinishi lozim; alohida istiqbolli yo'nalish – to'rt ustunni mustaqil o'zgaruvchi sifatida manipulyatsiya qiluvchi tabiiy eksperimentni mahalla darajasida sinash. Aynan mazkur bosqich maqolada assotsiativ deb baholangan bog'lanishlarni sababiy jihatdan tekshirish imkonini beradi.

Xulosa.Birinchidan, yoshlarning ommaviy loqaydligi haqidagi tasavvur mavjud ma'lumotlar bilan yetarlicha asoslanmagan: to'y, ma'raka, ofat paytidagi yordam va ko'ngillilik aksiyalari uyushish salohiyati ham, hamdardlik ham mavjudligini ko'rsatadi. Eng yirik miqdoriy ko'rsatkich – “Tashabbusli byudjet”da ovoz berganlar sonining 87,7 mingdan 10,28 mln nafarga, ya'ni 117 baravarga o'sgani [33, 34]; bunday ko'lamdagi safarbarlik ommaviy passivlik haqidagi umumlashtirilgan tasavvurga zid keladi. Ayni paytda mazkur ko'rsatkich yosh guruhlari bo'yicha ajratilmagani va ovoz berish dinamikasiga bir necha omil ta'sir qilishi e'tiborga olinishi lozim. Demak, muammoni faqat odamdan emas, avvalo tartibdan izlash kerak.

Ikkinchidan, faollikni harakatga aylantiruvchi institutning analitik modeli to'rt ustunga tayanadi: shaxsiy chaqiriq, aniq manzil va vaqt, ko'rinadigan natija, jamoaviy e'tirof. An'anaviy hasharda to'rttasi birga ishlagan, virtual muhitda esa ularning aksariyati zaiflashgan. Model ustunlar o'rtasida ko'paytiruvchi munosabatni faraz qiladi: bittasining nolga aylanishi butun mexanizmni ishdan chiqaradi. Mazkur faraz evristik xarakterga ega bo'lib, uni tekshirish keyingi miqdoriy bosqichning vazifasidir. Har birining mustaqil nazariy asosga ega ekani [39; 40; 42; 10] analitik sxemaning ixtiyoriy emas, asoslangan tuzilma ekanini ko'rsatadi.

Uchinchidan, “slaktivizm” axloqiy nuqson emas: ramziy qo'llab-quvvatlash bilan cheklanish ko'pincha keyingi qadam uchun oraliq pog'onaning mavjud emasligi bilan izohlanadi. Shu nuqtayi nazardan masala shaxsning ma'naviy sifatlarida emas, ishtirok pog'onalarini shakllantirmagan institutsional dizaynda deb qo'yiladi; eksperimental ma'lumotlar

ommaviy ramziy qo'llab-quvvatlash keyingi mazmunli hissa ehtimolini muayyan sharoitlarda pasaytirishi mumkinligini ko'rsatadi [47].

To'rtinchidan, yoshlar bir jinsli guruh emas: bir xil qurilmaga ega ikki yoshning imkoniyati aloqa doirasi, bilimi va oila sharoiti bilan obyektiv farqlanadi. Buni zaif aloqalar nazariyasi [36] va kapital shakllari konsepsiyasi [10] birgalikda izohlaydi – axborotga kirish texnik emas, tarmoqli tabiatga ega. Bilvosita ko'rsatkich sifatida quyidagi nomutanosiblikni keltirish mumkin: 2024-yilda 9 452 ta mahallada 8,3 mln nafar yoshning ehtiyojlari o'rganilgan holda, platformaga 3 500 ta taklif kiritilgan [32]. Mazkur ikki ko'rsatkich turli o'lchov birliklariga ega bo'lgani bois ular o'rtasidagi nisbat konvertatsiya darajasi sifatida emas, faqat kattaliklar tartibidagi tafovutni ko'rsatuvchi indikativ o'lchov sifatida talqin qilinadi.

Beshinchidan, kuzatilayotgan ma'lumotlar o'zbek jamiyatida epizodik safarbarlik salohiyati nisbatan yuqori, kundalik va muntazam ishtirok salohiyati esa nisbatan past degan farazni ilgari surish imkonini beradi. Ta'kidlash lozimki, mazkur faraz vakillik so'rovi bilan tasdiqlanmagan va uni tekshirish alohida sotsiologik tadqiqotni talab qiladi. Strategik vazifa – ofat paytida o'z-o'zidan paydo bo'ladigan holatni kundalik hayotda barqaror yaratish. Mazkur vazifa ma'naviy-ma'rifiy ishning ahamiyatini inkor etmaydi: qadriyatga asoslangan tarbiya ishtirok uchun zarur ichki motivatsiyani shakllantiradi. Maqolada ilgari surilayotgan fikr shundan iboratki, ma'naviy-ma'rifiy ish institutsional yechimlar – ishtirok bo'sag'alarini qayta kalibrlash, javob berish majburiyati va e'tirof mexanizmlari bilan to'ldirilgandagina harakatga aylanadi [35]. Ikki yo'nalish bir-birini almashtirmaydi, balki bir-birini taqozo etadi.

Oltinchidan, xorijiy tajriba ko'chiriladigan nusxa emas, tekshirilgan yechimlar ombori: Estoniyadan javob berish majburiyati, Singapurdan bo'sag'ani pasaytirish, Yevropadan e'tirofni rasmiylashtirish, Janubiy Koreyadan murojaatlarni yagona nuqtadan qabul qilish olinishi mumkin [14] – biroq har biri milliy zaminga moslashtirilishi shart.

Yettinchidan, markaziy empirik kuzatuv: bir xil texnologik va huquqiy muhitda ishlaydigan ikki platforma natijalari o'rtasidagi bir necha tartib darajasiga teng tafovut institutsional dizayn farqi bilan bog'liq deb baholanadi – vazifa lokallashtirilgan va natija ko'rinadigan qilingan mexanizm 10,28 mln ishtirokchini safarbar qilgan [34], bu shartlar ta'minlanmagan mexanizm esa murojaatlarning atigi 7,2 foizi ovoz berish bosqichiga chiqqan [53]; mazkur kuzatuv H1 va H3 farazlariga mos keladi, biroq nazorat o'zgaruvchilari hisobga olinmagani bois ularni yakuniy tasdiqlangan deb hisoblash mumkin emas. Sakkizinchidan, 900 ming nafar yoshni ko'ngillilikka jalb etish ko'rsatkichiga [19] ro'yxatga olish emas, to'rt ustunni ishga tushiruvchi dizayn orqali erishish mumkinligi asoslandi; 10 008 ta mahalla yoshlar yetakchisi bo'g'ini [52] zarur infratuzilma allaqachon mavjudligini, muammo avvalo resursda emas, funksional yo'nalishda ekanini ko'rsatadi [12].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, kirish qismida keltirilgan illyustrativ holat maqolaning markaziy tezisini ixcham ifodalaydi: ijtimoiy faollikning mavjudligi uning jamoaviy natijaga aylanishini kafolatlamaydi. Yoshlarni faollikka da'vat etish emas, mavjud faollikni harakatga aylantiruvchi institutsional o'zanni loyihalash ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. An'anaviy hashar bunday o'zan vazifasini bajargan; tadqiqotning nazariy vazifasi esa uning funksiyalarini raqamli muhitda qayta tiklashning mumkin bo'lgan yo'llarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqolada taklif etilgan "raqamli hashar" modeli va uning to'rt indikatori keyingi empirik tadqiqotlar uchun tekshiriluvchi gipotezalar to'plamini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tönnies F. *Gemeinschaft und Gesellschaft*. – Leipzig: Fues's Verlag, 1887. – 294 S.
2. Durkheim É. *De la division du travail social*. – Paris: Félix Alcan, 1893. – 471 p.
3. Putnam R. D. *Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community*. – New York: Simon & Schuster, 2000. – 541 p.
4. Mannheim K. The Problem of Generations // *Essays on the Sociology of Knowledge*. – London: Routledge & Kegan Paul, 1952. – P. 276–322.
5. Mead M. *Culture and Commitment: A Study of the Generation Gap*. – New York: Natural History Press, 1970. – 113 p.
6. Castells M. *The Rise of the Network Society*. – 2nd ed. – Oxford: Blackwell Publishers, 2010. – 656 p.
7. Morozov E. *The Net Delusion: The Dark Side of Internet Freedom*. – New York: PublicAffairs, 2011. – 409 p.
8. Tufekci Z. *Twitter and Tear Gas: The Power and Fragility of Networked Protest*. – New Haven: Yale University Press, 2017. – 360 p.
9. Giddens A. *The Constitution of Society: Outline of the Theory of Structuration*. – Cambridge: Polity Press, 1984. – 402 p.
10. Bourdieu P. The Forms of Capital // *Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education* / ed. by J. Richardson. – New York: Greenwood Press, 1986. – P. 241–258.
11. Otamuratov S. *Globallashuv va millat ma'naviyati*. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
12. Bekmurodov M. B. *Boshqaruv sotsiologiyasi: nazariya va amaliyot*. – Toshkent, 2020.
13. Seitov A. P. *O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari va yoshlar ishtiroki*. – Toshkent, 2019.
14. Sodiqova Sh. M. *Oil sotsiologiyasi: raqamlashuv sharoitida avlodlararo munosabatlar*. – Toshkent, 2019.
15. Abduazimov O. *Ommaviy kommunikatsiyalar va jamoatchilik fikri monitoringi*. – Toshkent, 2020.
16. Toshmuhamedova D. *Ijtimoiy tarmoqlar va yoshlarning ijtimoiy roli*. – Toshkent, 2021.
17. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi O'RQ-406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 20-apreldagi PF-66-son "Yangi O'zbekiston yoshlari – 2030" strategiyasini tasdiqlash hamda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

20. Arnstein S. R. A Ladder of Citizen Participation // *Journal of the American Institute of Planners*. – 1969. – Vol. 35, No. 4. – P. 216–224.
21. OECD OPSI. *Collective Addresses and Rahvaalgatus.ee: Nudging the Parliament of Estonia to More Openness and Accountability*. – Paris: OECD, 2019.
22. Interreg Europe. *Good Practice: Citizen Initiative Portal (Rahvaalgatus.ee, Estonia)*. – 2025. – Interreg Europe.
23. Open Government Partnership. *Rahvaalgatus.ee – a Process of Democratic Renewal*. – Washington, 2020.
24. *Singapore's Smart Nation Initiative: Case Study*. – Singapore: Lee Kuan Yew School of Public Policy, National University of Singapore, 2018.
25. *Smart Nation 2.0: Trust, Growth, Community*. – Singapore: Smart Nation Office, 2024.
26. European Commission. *European Youth Portal: European Solidarity Corps and Youthpass*. – Brussels. – European Youth Portal.
27. *e-People: Integrated Civil Petition Portal of the Republic of Korea*. – e-People.
28. Zuboff S. *The Age of Surveillance Capitalism*. – New York: PublicAffairs, 2019. – 704 p.
29. Pariser E. *The Filter Bubble: What the Internet Is Hiding from You*. – New York: Penguin Press, 2011. – 294 p.
30. DataReportal. *Digital 2025: Uzbekistan*. – Kepios; We Are Social; Meltwater, 2025. – Digital 2025: Uzbekistan.
31. Yakubov A. Telegram – 76% Reach, YouTube – № 1: Inside Uzbekistan's Digital Landscape // *UzDaily*. – 2025. – 22 October.
32. Agency for Youth Affairs of the Republic of Uzbekistan. *Briefing on Youth Engagement in 2024*. – Tashkent, 2024. – Government Portal of the Republic of Uzbekistan.
33. UNDP Uzbekistan. *Participatory Budgeting: From Piloting to Developing New Practices*. – Tashkent: United Nations Development Programme, 2023.
34. “Tashabbusli budjet”ning 2026-yil 1-mavsumi g’oliblari e’lon qilindi // *Gazeta.uz*. – 2026. – 21-mart.
35. Granovetter M. Threshold Models of Collective Behavior // *American Journal of Sociology*. – 1978. – Vol. 83, No. 6. – P. 1420–1443.
36. Granovetter M. S. The Strength of Weak Ties // *American Journal of Sociology*. – 1973. – Vol. 78, No. 6. – P. 1360–1380.
37. Olson M. *The Logic of Collective Action: Public Goods and the Theory of Groups*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1965. – 176 p.
38. Coleman J. S. Social Capital in the Creation of Human Capital // *American Journal of Sociology*. – 1988. – Vol. 94. – P. S95–S120.
39. Ostrom E. *Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 280 p.
40. Verba S., Schlozman K. L., Brady H. E. *Voice and Equality: Civic Voluntarism in American Politics*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1995. – 640 p.
41. Hirschman A. O. *Exit, Voice, and Loyalty*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1970. – 162 p.
42. Bandura A. Exercise of Human Agency Through Collective Efficacy // *Current Directions in Psychological Science*. – 2000. – Vol. 9, No. 3. – P. 75–78.
43. Bennett W. L., Segerberg A. *The Logic of Connective Action: Digital Media and the Personalization of Contentious Politics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013. – 240 p.
44. Rainie L., Wellman B. *Networked: The New Social Operating System*. – Cambridge, MA: MIT Press, 2012. – 358 p.
45. Dalton R. J. Citizenship Norms and the Expansion of Political Participation // *Political Studies*. – 2008. – Vol. 56, No. 1. – P. 76–98.
46. Fung A. Varieties of Participation in Complex Governance // *Public Administration Review*. – 2006. – Vol. 66, Suppl. 1. – P. 66–75.
47. Kristofferson K., White K., Peloza J. The Nature of Slacktivism // *Journal of Consumer Research*. – 2014. – Vol. 40, No. 6. – P. 1149–1166.
48. Putnam R. D. Bowling Alone: America's Declining Social Capital // *Journal of Democracy*. – 1995. – Vol. 6, No. 1. – P. 65–78.
49. Mauss M. Essai sur le don: Forme et raison de l'échange dans les sociétés archaïques // *L'Année Sociologique*. – 1925. – Vol. 1. – P. 30–186.
50. Merton R. K. *Social Theory and Social Structure*. – Enlarged ed. – New York: The Free Press, 1968. – 702 p.
51. *O'zbekiston yoshlari: muammolar va istiqbollar*. – Toshkent: UNICEF O'zbekistondagi vakolatxonasi, 2021. – UNICEF Uzbekistan.
52. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori.
53. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 2025-yil 12-fevraldagi 463-V-son “Mening fikrim” veb-portaliga kelib tushgan elektron jamoaviy murojaatlarni ko'rib chiqish to'g'risida”gi qarori.
54. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-dekabrda O'RQ-585-son “Volontyorlik faoliyati to'g'risida”gi Qonuni.
55. SALTO-YOUTH Resource Centre. *Youthpass Statistics*. – Bonn, 2026. – Youthpass.
56. Seligman M. E. P. *Helplessness: On Depression, Development, and Death*. – San Francisco: W. H. Freeman, 1975. – 250 p.